



TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MUAMMO SIFATIDA

Meylieva M.S.

CHDPU Pedagogika fakulteti tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: talaba, ijodiy qobiliyat, akmeologik yondashuv, rivojlanish, pedagogika, o'quv jarayoni, ta'lim, psixologiya.

Ключевые слова: студент, творческие способности, акмеологический подход, развитие, педагогика, образовательный процесс, воспитание, психология.

Key words: student, creative ability, acmeological approach, development, pedagogy, educational process, education, psychology.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada talabalarning ijodiy qobiliyatlarini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi. Akmeologiya – bu shaxsning barcha rivojlanish bosqichlarida uning yuqori samarali faoliyatini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar sohasi bo'lib, ijodiy qobiliyatlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Talabalarning ijodiy fikrlash va innovatsion yondashuvlar orqali dunyoqarashini kengaytirish, o'quv jarayonida faol ishtirok etishlari, yangi g'oyalar yaratish va ularni amaliyotda qo'llash orqali o'z qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada akmeologik yondashuvning pedagogik metodlari va vositalarining ta'lim jarayonidagi roli, shuningdek, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati yoritiladi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития творческих способностей студентов на основе акмеологического подхода. Акмеология – область научных исследований, направленная на обеспечение высокоэффективной деятельности человека на всех этапах его развития, и играет важную роль в формировании и развитии творческих способностей. Анализируются возможности студентов расширять свое мировоззрение посредством творческого мышления и инновационных подходов, активно участвовать в образовательном процессе, развивать свои способности путем создания новых идей и применения их на практике. В статье освещается роль педагогических методов и инструментов акмеологического подхода в образовательном процессе, а также значение сотрудничества учителя и ученика в развитии творческих способностей учащихся.

SUMMARY:

This article examines the theoretical and practical aspects of developing students' creative abilities based on the acmeological approach. Acmeology is a field of scientific research aimed at ensuring the highly effective activity of a person at all stages of his development, and plays an important role in the formation and development of creative abilities. Students' opportunities to expand



their worldview through creative thinking and innovative approaches, actively participate in the educational process, develop their abilities by creating new ideas and applying them in practice are analyzed. The article highlights the role of pedagogical methods and tools of the acmeological approach in the educational process, as well as the importance of cooperation between the teacher and the student in the development of students' creative abilities.

Dunyoda bo'lajak pedagog kadrlarni kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishni rivojlantirishda akmeologik yondashuvdan kengroq foydalanish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlikni modernizatsiyalash, pedagogik kasbiy ta'lim sharoitida raqobatbardosh pedagoglar tayyorlashni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish modelining amaliy komponenti akmeologik yondashuv asosida kasbiy kreativ qobiliyatni shakllantirishning integrativ mazmunini innovatsion akmetexnologiyalar, ilmiy-ijodiy muhit va innovatsion faoliyat uyg'unligini ta'minlashda akmeologik yondashuvga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlashda akmeologiyaning nazariy va amaliy masalalaridan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar Angliya, Niderlandiya, AQSH, Malayziya, Germaniya, Turkiya, Kanada, Hindiston kabi davlatlarda, MDH davlatlarida, dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Jumladan, shaxsiy o'sish, kasbiy rivojlanish va ijtimoiy o'zgarishlarning ta'limiy va ommaviy shartlari Liverpool Hope University (Angliya); shaxsiy rivojlanish rejaları Maastricht University Gollandiya (Niderlandiya); bolalarning erta o'smirlilikda kasbiy rivojlanishi: jarayonlar, muammolar, tadqiqot zaruriyati yo'nalishida akmeologik ilmiy izlanishlar Nebraska universiteti tadqiqot markazida Susan M. Sheridan rahbarligida (Nebraska University, Lincoln City, Nebraska State USA); talabalarda muloqot kompetentligini kuchaytirishning (pedagogik, psixologik, akmeologik) masalalari, Suriani Binti Mohd Kasim rahbarligidagi ilmiy tadqiqot (Mara Technology University, Malayziya) markazida, Belfield pedagogical university (Germaniya), Fatih Universiteti Istanbul (Turkiya), ilmiy pedagogik xodimlarni o'qitishda akmeologiyani qo'llash muammolari (Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universitetida); Akmeologik ta'lim asosida kadrlarning individual kompetentligini shakllantirish muammosi (Ukrainaning Kiyev davlat universitetida); davlat ta'lim akademiyasiga qarashli akmeologiya fanlari xalqaro akademiyasining akmeologik tadqiqotlar markazi (Rossiya) kabi ilmiy muassasalarda atroflicha o'rganilmoqda.



Chet el olimlari tomonidan, jumladan: Hull J.G., Van Treuren R.R., Propsom P.M.[126] atribut uslubi va akmeologik yondashuvning tarkibiy qismlari, K.Thomas shaxsni rivojlantirishning samarali usullari [58], J.K.Khanna akmeologiyani tatbiq etishda tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim masalalarini atroflicha ilmiy tadqiq etilishi [92] tadqiq etilgan.

Hozirgi paytda puxta o'ylangan, ilmiy asoslangan davlat siyosati vositasida mamlakatimiz fuqarolarining tabiiy qobiliyati, bilimi, malakasi, kasb-hunarga layoqati va say-harakatlaridan oqilona foydalanish uchun qulay zamin yaratish, shuningdek, mustaqil O'zbekistonning ravnaq topishida ularning ehtiyojlari, ijtimoiy manfaatlarini, hayotiy istiqbollari belgilab olish va ro'yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar jamiyatimizning turli jabhalarida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, joriy muhitni va jarayonlarning samaradorligini, sifatini oshirish masalalarini qamrab olmoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasida, ta'lim sifatini, kadrlar malakasini oshirish, jahon talabiga mos keluvchi yetuk bilim va salohiyatga ega bo'lgan kadrlarni tarbiyalash kabi masalalar davlat siyosatining muhim jabhalaridan biriga aylanib ulgurdi.

G.K.Chesterton ta'kidlaganidek, "Ta'lim bu jamiyatning avloddan avlodga o'tib boruvchi yuragidir". Har qanday davrda davlat ravnaqida yetuk o'qituvchi-pedagoglarning ahamiyati beqiyos bo'lganligi sir emas.

Bu vazifalarni amalga oshirishda yuksak bilimli, etuk professional kadrlarni ahloqiy kamolot ruhida shakllantirish, mamlakatimiz ravnaqi hamda gullab-yashnashi uchun xizmat qiladigan akmeshaxslarni vujudga keltirish ustuvor vazifalarimizdan biriga aylanib bormoqda.

Ushbu mexanizmlardan biri – inson resurslarini rivojlantirish, undan oqilona foydalanishning yangicha yo'llarini izlab topish, ya'ni o'ta muhim echimlaridan biri – akmeologiyaning ijtimoiy ahloqiy muammolarining ilmiy muomalaga kirib kelishidir.

Akmeologiyaning ilmiy muomalaga kirib kelishiga asos solgan psixolog B.G.Ananev, «Insonning ruhiy bilish rivoji markazida dastlabki va so'nggi ontogenez, «chetroqda» esa insonning ko'proq ijodiyroq, samaraliroq ijtimoiy-faol hayot fazasi bo'lishi mumkin», deydi.

Albatta, bu jarayonlarning barchasi, shaxsning individual-ruhiy rivoji haqidagi yagona ilmiy-nazariy g'oyaning maxsus fundamental ishlab chiqarilgan, o'smirlik va etuklikning yosh psixologiyasi qismisiz mavjud bo'la olmaydi, degan nazariyalar ham yo'q emas.

Shu bois, akmeologiyaning predmeti individ, shaxs individual faoliyatining barcha sohalarida erishgan maksimal etukligi bo‘Imog‘i lozim (A.A.Bodalyov, N.V.Kuzmina, AA.Derkach va boshqalar), degan qat‘iy konsepsiya yuzaga keldi.

Maksimal etuklik individ, shaxs rivojining cho‘qqisi va individual faoliyat bilan bog‘liq ekan, demak ana shu cho‘qqi yunonchada «akme» deyiladi va bu soha akmeologiya deb yuritiladi.

Shu bilan birga, «akme»da insonning faoliyati bilan bog‘liq holatlar ham nazarda tutiladi. Jumladan, shaxsning «yulduzli» onlari yoki shunga yaqin jarayonlar, ya‘ni biror-bir sohada erishgan oliy yutuqlari (N.V.Kuzmina).

Zamonaviy ilm-fanda insoniy yuksaklikning «akme» kategoriyasi bilan bog‘liq bir necha talqinlari mavjud. Jumladan, birinchi, «akme» – bu qisqagina hayot kesimini qamrab olsada, ko‘p qirrali holat bo‘lib, insonning har doim jamiyatda qanchali ko‘z o‘miga ega ekanligi, uning biror-bir soha mutaxassisi sifatida olib borayotgan salmoqli faoliyati, shaxs sifatida esa uni o‘rab turganlar bilan olib borgan ijtimoiy aloqasida qanchalik boy yoki qashshoqligi, turmush o‘rtoq va ota-ona sifatida tayyorlik darajasi bilan bir qatorda yaxshi tomonga o‘zgara olish darajasi va eng yashirin ezgu qobiliyatlarini ham ko‘rsata olish darajasiga ham bog‘liqdir.

Akmeologiyaning mazmun-mohiyati – insonning har bir kasb-hunarni bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta‘sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o‘z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas‘uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishni o‘rganishdan iborat», deydi. Bizningcha esa, akmeologiya tabiiy, umumjamo va insoniy qoidalar asosida nafaqat kasbiy mahoratning yuksak muvaffaqiyatga erishishi, balki insonning etuklik bosqichida ham ruhan, ham ijtimoiy rivojlanish qonunlari va mexanizmlari, ijtimoiy, ruhiy yuksaklikka erishish darajalari fenomenologiyasini o‘rganish haqidagi fandır. Bunda biz Sharq allomalarning «komil inson» g‘oyalarini akmeologiyaning ob‘ekti «akmeshaxs» tushunchasi bilan bir qatorda tadqiq etgan holda, ushbu fanning fundamenti Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qo‘lyozmalarida o‘z ifodasini topgan va bugungi kunda bizning mamlakatimizda keng foydalanilmoqda, desak, aslo adashmaymiz. Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda, «ake» tushunchasini albatta yuksak cho‘qqi, avj nuqta, eng oliy hissiyotlar (A.Maslou), deyish mumkin.

Akmeologiyadagi asosiy iboralardan biri «akmeologik moyillik» iborasi bo‘lib, ushbu tushuncha shaxsning intiluvchanlik xossasini anglatadi.



Akmesaxs – akmeologiyaning asosiy predmeti bo‘lib, uning mazmun-mohiyati – insonning har bir kasb-hunarni ilm-bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o‘z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas’uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishi jihatlarini fanlar bilan uyg‘unlikda o‘rganishdan iborat bo‘lib, insonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy dunyosida yuksakroq cho‘qqilarga, kasbiy kamolotda mukammallik bosqichiga erishish muammolarini o‘rganadi

Tadqiqotchilarning boshqa guruhi esa akme muammosini yoritar ekanlar, katta yoshli inson hayotining ishga layoqatlilikning yuqori darajasiga xos bo‘lgan, va uning shaxs sifatidagi fuqarolik faolligini amalga oshiruvchi hamda shu bilan birga o‘z kasbiy imkoniyatlarini mehnatning o‘zi uchun muhim bo‘lgan kasbiy imkoniyatlarini samarali va ijodiy jihatdan unumli bo‘lgan nisbatan uzoqroq vaqt oralig‘ini nazarda tutadilar. Va nihoyat, “akme” atamasini ontogenezda inson rivojlanishi haqidagi bo‘lim nomiga kirituvchi tadqiqotchilar mavjud. Ular sirasiga N.A.Ribnikov, undan so‘ng B.G.Ananev va uning o‘quvchilari va izdoshlari bo‘lgan A.A.Bodalev, A.A.Derkach, N.V.Kuzmin va boshqalarni kiritish mumkin. Aynan ular katta yoshli insonni kompleks ravishda o‘rganuvchi fanni akmeologiya deb nomladilar va bunda aynan etuklik pillapoyalarida ontogenezning avvalgi bosqichlarida to‘g‘ri shakllangan inson odatda o‘zini voqelik bilan boy aloqalarga ega bo‘lgan faol arbob, mutaxassis sifatida namoyon qiladi, deb alohida ta’kidlab o‘tadilar.

"Talabalarining ijodiy qobiliyatlarini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish" mavzusidagi muammolarni o‘rganish, shu bilan birga, bu muammolarni hal qilishga oid mualliflik xulosasini chiqarmoqchi bo‘lsak, bir nechta asosiy nuqtalarni ta’kidlab o‘tish lozim.

1. Muammo: Talabalar orasida ijodiy fikrlashning etishmasligi

Muammo tushunchasi: Talabalar ko‘pincha ijodiy fikrlash va yangi g‘oyalar yaratishga yetarlicha rag‘batlantirilmaydi. Ularning fikrlash tarzlari ko‘proq standart va an’anaviy bilimlar bilan cheklanadi. Bu holat ijodiy qobiliyatlarni to‘liq rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi.

Xulosa: Talabalarining ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun akmeologik yondashuvning asosiy tamoyillarini, ya’ni innovatsion va interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash zarur. Treninglar, brainstorming sessiyalari va interfaol mashg‘ulotlar talabalarga ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini oshirishda yordam beradi.

2. Muammo: Talabalar uchun akmeologik yondashuvning etarlicha keng tarqalmasligi

Muammo tushunchasi: O'quv jarayonida akmeologik yondashuvlarni amalga oshirishda o'qituvchilar va ta'lim muassasalarida ba'zi cheklovlar mavjud. Bular o'quv dasturlarida o'zgarishlar, yondashuvlarni joriy qilish va o'qituvchilarni yangi metodlarga tayyorlashga oid muammolarni o'z ichiga oladi.

Xulosa: Akmeologik yondashuvning muvaffaqiyatli qo'llanilishi uchun o'qituvchilarni ushbu metodlarga tayyorlash kerak. Bu, o'z navbatida, ta'lim muassasalarida maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim dasturlarini yangilash, talabalar va o'qituvchilar uchun innovatsion metodlarni ishlab chiqish zarur.

3. Muammo: Talabalar uchun individual rivojlanish imkoniyatlarining cheklanganligi

Muammo tushunchasi: Ba'zi talabalarda o'z imkoniyatlarini maksimal darajada ochish uchun kerakli sharoitlar va qo'llab-quvvatlash etishmaydi. O'quv muassasalarida talabalar o'zlarini o'rganish va rivojlantirish uchun etarli vaqt yoki imkoniyatlarga ega bo'lmasligi mumkin.

Xulosa: Talabalar uchun individual rivojlanishning imkoniyatlarini kengaytirish zarur. O'quv jarayoniga qo'shimcha tarzda mentorlik tizimini joriy etish, shaxsiy rivojlanish rejalari va maxsus ilmiy izlanishlar uchun imkoniyatlar yaratish muhim. Bu talabalar o'z maqsadlariga erishishda yanada samarali bo'lishiga yordam beradi.

4. Muammo: Talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqaning yetishmasligi

Muammo tushunchasi: Talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalar ba'zan yetarlicha samarali bo'lmasligi mumkin. O'qituvchilar talabalarning individual ehtiyojlari va salohiyatlarini to'liq anglamasliklari mumkin.

Xulosa: O'qituvchilar va talabalar o'rtasida samarali kommunikatsiya va individual yondashuvni o'rnatish zarur. O'qituvchilar talabalarning har birining shaxsiy rivojlanishiga yo'naltirilgan maslahatlar, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish orqali ularga yordam berishlari kerak.

5. Muammo: O'qituvchilarning akmeologik metodlarni joriy etishdagi malakali tayyorlanmasligi

Muammo tushunchasi: Akmeologik yondashuvni to'liq amalga oshirish uchun o'qituvchilarning metodik malakalari yetarli darajada emas. Akmeologik yondashuvlarning ta'lim jarayoniga samarali qo'llanilishi uchun o'qituvchilarni yangi metodlar va yondashuvlarga tayyorlash talab etiladi.



Mualliflik xulosasi o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun muntazam ravishda seminarlar va treninglar tashkil etish zarur. Akmeologik yondashuvning samarali qo'llanishi o'qituvchilarning bu sohadagi bilim va ko'nikmalariga bog'liq bo'lib, ularni tayyorlash jarayoni doimiy ravishda amalga oshirilishi kerak.

Umuman olganda, talabalarining ijodiy qobiliyatlarini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishda mavjud bo'lgan muammolarni hal qilish, ta'lim tizimida chuqur o'zgarishlar va yangi yondashuvlarning joriy etilishini talab qiladi. Bu, o'z navbatida, talabalarining maksimal darajada rivojlanishi, ijodiy fikrlashni oshirish va innovatsion yondashuvlarni qo'llashga yordam beradi. Akmeologik yondashuvni ta'lim jarayoniga joriy etish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va talabalar uchun shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratish orqali muammolarni hal qilish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz Prezident asarlari. 2-jild, 422-bet T.: O'zbekiston, 2018. – 32 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak – T.: O'zbekiston, 2017. – 102 b.
3. Салиев А.Ш. Ёшларнинг интилувчанлигини аниқлашда акмеограмманинг аҳамияти// Ёшларнинг акмеологик қарашларини шакллантиришда соғлом турмуш тарзининг ўрни. Т., 2008. Б.227.
4. Djuraev R.H. Ta'limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent, 2010. – 87
5. Rakhmanova Mukaddas. “Scientifik and pedagogical bases of preparation of students for development of sosial astivitu in the proses of professional and pedagogical edusation” // Volume: 7 Issue: 11 November 2021 SJIF Impast Fastor 2021: 8.047|| ISI Value: 1.188. 2021 EPRA IJMR | www.eprajournals.com | Journal DOI URL: <https://doi.org/10.36713/epra2013 B.283-287>.
6. Raxmanova M.Q. Problems of Improving Sosial Sompetense of Students in the Proses of Higher Pedagogical Education // Sentral asian journal of literature, philosophy and sulture 12 Des 2022 B.48-52
7. Raxmanova M.Q. O'quvshilar kasbiy ta'limining psixologik jihatlari va motivlari // O'zMU xabarлари. 2021. –№1/3/ – B. 114-116.